Shu bilan birgalikda, A.J. Abdulloyev<sup>4</sup> mamlakatda iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida klasterli usulda tashkil etilgan agrosanoat tarmoqlarida amal qilayotgan boshqaruv amaliyotining uslubiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishlari borasida ilmiy izlanishlarni olib borgan bo'lsa, N.N. Asqarov mahalliy agrosanoat tarmog'ini rivojlantirishda sohada ko'p tarmoqli tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etishning uslubiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishida ilmiy tadqiqotlarni o'tkazgan<sup>5</sup>. D.A. Elov esa respublika viloyatlari kesimida qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvidan kelib chiqib<sup>6</sup>, agrosanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish samaradorligini oshirishda kichik iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi o'zaro kooperatsion munosabatlarni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini taklif etib, mamlakat agrosanoat tarmog'ining jozibadorligini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan isbotlab bergan hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Agrosanoat tarmoqlarida innovatsion marketing dasturlaridan foydalanishning huquqiy asoslari tegishli qonunlar, qarorlar va dasturlarda o'z ifodasini topadi. Xususan, agrosanoat tarmoqlarida innovatsion marketing dasturlaridan foydalanishning huquqiy asoslari sifatida mamlakat qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi iqtisodiy subyektlarning asosiy shakllari sifatida dehqon, fermer va qishloq xo'jaligi kooperativlarini aytib o'tish mumkin bo'ladi.

Ularning agrosanoat mahsulotlari ishlab chiqarish zanjiridagi ishtirokini ta'minlash borasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini tartibga solishda fermer, dehqon va qishloq xo'jaligi kooperativlari tegishli tartibda "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"<sup>7</sup>gi, "Dehqon xo'jaliklari to'g'risida"<sup>8</sup>gi va "Qishloq xo'jaligi kooperativlari to'g'risida"<sup>9</sup>gi Qonunlar asosida tartibga solinadi. Shu bilan birgalikda, mamlakatda qishloq xo'jaligi salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, "sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish bo'yicha mavjud imkoniyatlardan qishloq xo'jaligi birlashmalari, jumladan, agroklasterni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash"<sup>10</sup>ga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi xo'jalik subyektlarini tashkiliy shakllari bo'yicha turlarining ko'payib borayotganligi ular faoliyatida innovatsion marketing dasturlaridan foydalanish asosida mahalliy raqobat ustunligiga erishish va iste'molchilar talablariga mos keladigan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish hisobiga global bozorlardagi ishtirokini kengaytirish mumkin bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatda iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirish borasidagi islohotlarga ustuvorlik qaratilishi natijasida agrosanoat tarmoqlarining ta'minot zanjirini yanada mustahkamlash, ularning

- 1 Abdiyev A. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. Qarshi – 2007. – 270 bet
- 2 Madaliyev A.A. Agrosanoat sektorida ilmiy-texnik taraqqiyot va innovatsion rivojlanish konsepsiyasi (Monografiya). "Navro'z" nashriyoti, 2020. – 260 bet
- 3 Asatullayev X.S., Allabergaanov Z.G. O'zbekiston Respublikasida klasterli tizim orqali agrosanoat samaradorligini oshirish yo'llari (Monografiya). "Fan va texnologiyalar nashriyot-matba uyi", 2020. – 190 bet
- 4 Abdulloyev A.J. Agroklasterni faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) diss. avtoref. Buxoro, 2024. – 34 bet.
- 5 Asqarov N.N. Qishloq xo'jaligida ko'p tarmoqli tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari. I.f.d. (DSc) diss. avtoref. Buxoro, 2025. – 30 bet.
- 6 Elov D.A. Mintaqalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) diss. Avtoref. Toshkent, 2024. – 30 bet
- 7 O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 662-II-son Qonuni, 26.08.2004-y.
- 8 O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi O'RB-680-son Qonuni, 01.04.2021-y.
- 9 O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligi kooperativlari to'g'risida"gi O'RB-995-son Qonuni, 08.11.2024-y.
- 10 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamsining "Qishloq xo'jaligi birlashmalarining a'zolari, meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari va tadbirkorlik subyektlariga mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko'chatlar (pakana va yarim pakana) xo'raki, kishmishbop va sanoatbop tok ko'chatlari hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 458-son qarori, 24.07.2021-y.



xo'jalik faoliyatlarini iqtisodiy jihatdan himoyalanganlik darajasini kuchaytirish maqsadida "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtala qilish to'g'risida"<sup>11</sup>gi Qonun qabul qilingan hisoblanadi. Jumladan, mamlakatda agrosanoat tarmoqlari tarkibiga kiruvchi xo'jalik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, mazkur yo'nalishda davlat tomonidan amalga oshiriladigan davlat siyosatining ustuvorliklari va tamoyillari, mazkur yo'nalishdagi davlatning vakolatli organlari vakolatlari O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"<sup>12</sup>gi Qonunida belgilab qo'yilgan.

Shu bilan birgalikda, mamlakat agrosanoat tarmoqlarida innovatsion marketing tadqiqotlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida "Aqlli qishloq xo'jaligi" texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi"<sup>13</sup> ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur davlat dasturi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi"<sup>14</sup> doirasida agrosanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar tizimining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Jumladan, agrosanoat tarmoqlarida innovatsion marketing dasturlaridan foydalanishda raqamli texnologiyalarni joriy qilish borasidagi munosabatlar "Innovatsion faoliyat to'g'risida"<sup>15</sup>gi Qonun bilan ham tartibga solinib, bugungi kunda mamlakatda "Innovatsion rivojlanish strategiyasi"<sup>16</sup> ham amalda hisoblanib, mazkur strategiya innovatsion faoliyat bilan bog'liq bo'lgan rivojlanish ustuvorliklarini o'zida aks ettiradi. Mazkur davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarni o'zaro mutanosibligini ta'minlash hisobiga agrosanoat tarmoqlarida "raqamli texnologiyalarni joriy etish, mahsulot yetishtirish jarayonlarini monitoring qilish, xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar aniqligini oshirish orqali milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, sohada raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish"<sup>17</sup>ga erishilmoqda. Mazkur tendensiyalarning barchasi mamlakat agrosanoat tarmoqlarida innovatsion marketing dasturlarini joriy etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Agrosanoat tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish borasidagi islohotlarga ustuvorlik qaratilishi natijasida sohada innovatsion marketing imkoniyatlarining kengayishi, elektron tijorat bilan bog'liq bo'lgan sohalarni ham rivojlantirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Ushbu vaziyatni inobatga olib, davlat tomonidan innovatsion marketing dasturlari samarali amal qilishini ta'minlash, jumladan, agrosanoat tarmoqlarida xo'jalik faoliyati yuritayotgan korxonalarini elektron tijorat vositalaridan foydalanish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda "Elektron tijorat to'g'risida"<sup>18</sup>gi Qonundan foydalaniladi.

Agrosanoat tarmoqlarida innovatsion marketing dasturlaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlaridan yana biri bu reklama faoliyati hisoblanib, bugungi kunda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanish holatiga mos keladigan reklama faoliyatini amalga oshirish, uni tayyorlash, tarqatish va joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga solishda "Reklama to'g'risida"<sup>19</sup>gi Qonuni ishlab chiqilgan. Shu bilan birgalikda, agrosanoat tarmoqlari faoliyatini reklama qilish bilan bog'liq bo'lgan marketing dasturlarida ishlab chiqilgan reklama rolik va vositalarini ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilib, ushbu jarayonda sodir bo'ladigan munosabatlarni "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"<sup>20</sup>gi Qonunidan foydalaniladi. Jumladan innovatsion marketing dasturlaridan amaliyotda foydalanishda internet tarmog'i muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olib, davlat tomonidan mazkur "tarmoqda axborot xavfsizligini ta'minlash"<sup>21</sup>ga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu jarayonlarni tartibga solishda "Axborotlashtirish to'g'risida"<sup>22</sup>gi Qonundan foydalaniladi. Yuqorida keltirib o'tilgan islohotlar mamlakat agrosanoat tarmog'ida "Raqamli qishloq xo'jaligi"<sup>23</sup> axborot tizimini shakllantirish imkonini berib, bu ham sohada innovatsion marketing dasturlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

11 O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtala qilish to'g'risida"gi O'RB-1056-son Qonuni, 14.04.2025 y

12 O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi O'RB-1023-son Qonuni, 03.02.2025-y.

13 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 794-son qarori, 17.12.2020-y.

14 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" srategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son farmoni, 05.10.2020-y.

15 O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi O'RB-630-son Qonuni, 24.07.2020-y.

16 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son farmoni, 06.07.2022-y.

17 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni yanada jadaallashtirish orqali samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-130-son farmoni, 12.08.2025-y.

18 O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RB-792-son Qonuni, 29.09.2022-y.

19 O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi O'RB-776-son Qonuni, 07.06.2022-y.

20 O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hqida"gi O'RB-78-son Qonuni, 15.01.2007-y.

21 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Butunjahon internet tarmog'ida axborot xavfsizligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 707-son qarori, 05.09.2018-y.

22 O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-son Qonuni, 11.12.2003-y.

23 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 794-son qarori, 17.12.2020-y.



Jumladan, 2030-yilga qadar bo'lgan muddatda mamlakat qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasida "qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo'shilgan qiymatli qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish"<sup>24</sup> kabi ustuvor vazifalarning belgilab berilganligi agrosanoat tarmoqlarida innovatsion marketing dasturlaridan foydalanish istiqbolda dolzarb ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi. Shu bilan birlikda, mazkur strategiya doirasida agrosanoat tarmoqlari faoliyatida "ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro integratsion munosabatlarni rivojlantirishga ustuvorlik qaratish orqali sohada yuqori samaradorlik va sifatni ta'minlash"<sup>25</sup> bo'yicha ham tegishli davlat dasturlari amalga oshirilib, bu turdagi dasturlar nafaqat ularning ishlab chiqarish faoliyati, balki innovatsion marketing dasturlaridan amaliyotda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga ham tegishli hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. Global bozorlardagi TOP reytinglarga kiritilishi rejalashtirilgan milliy brendlarning sanoat yo'nalishlari<sup>26</sup>

T/r	Sanoat yo'nalishlari	Sanoat mahsulotlari
1	Avtomobil sanoati	Avtotransport vositalari va butlovchi qismlar
2	Zargarlik sanoati	Tayyor zargarlik buyumlari
3	Ipakchilik sanoati	Ipakdan tayyor matolar, kiyimlar, gilamlar va boshqa buyumlar
4	Kimyo, parfyumeriya va kosmetika sanoati	Kimyo vositalari, shu jumladan kosmetika, parfyumeriya, shampun, sovun
5	Qurilish materiallari sanoati	Bo'yoqlar, kafel, santexnika mahsulotlari
6	Mebelchilik sanoati	Tayyor mebellar
7	Metallurgiya sanoati	Metall mahsulotlar va buyumlar
8	Oziq-ovqat sanoati	Quritilgan, qadoqlangan va konservalangan oziq-ovqat mahsulotlari, spirtsiz ichimliklar (energetik ichimliklardan tashqari), qadoqlangan go'sht va kolbasa mahsulotlari, qandolat mahsulotlari
9	To'qimachilik sanoati	To'qimachilik, trikotaj va boshqa tayyor kiyimlar, gilamlar
10	Farmatsevtika sanoati	Dori-darmonlar, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika, biologik faol qo'shimchalar
11	Charm-poyabzal sanoati	Poyabzal va charm-attorlik mahsulotlari
12	Elektrotexnika sanoati	Elektrotexnika mahsulotlari

So'nggi yillarda mahalliy sanoat tarmoqlari, jumladan, agrosanoat sohasida "global darajada yetakchilik qilib kelayotgan brendlar bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqarish amaliyotini xalqaro standartlar tizimiga integratsiyalash orqali milliy brendlarning xalqaro bozorlardagi ishtirokini kengaytirish"<sup>27</sup> da shakllantirilgan sanoat yo'nalishlari milliy brendlarning tarkibiga agrosanoat tarmoqlari hisoblangan sohalar ham mavjud bo'lib, ushbu holat nafaqat agrosanoat balki ushbu ro'yxatga kiritilgan boshqa sanoat yo'nalishlarida ham innovatsion marketing dasturlarining foydalanish amaliyotiga o'tish zaruriyatini oshiradi. Jumladan, "shakllantirilgan milliy brendlar ro'yxatiga kiritilgan sanoat yo'nalishlaridagi yetakchi korxonalarining yetakchi xorijiy brendlar bilan hamkorlik munosabatlari, ularning mahsulot ishlab chiqarishini xalqaro standartlarga integratsiyalash jarayonlarini qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish uchun Savdoga ko'maklashish jamg'armasi"<sup>28</sup> tashkil etilgan (2-jadval).

24 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son farmoni, 23.10.2019-y.

25 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-216-son qarori, 07.07.2023-y.

26 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-286-son qaroriga 1-ilova, 07.08.2024-y.

27 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-286-son qarori, 07.08.2024-y.

28 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sanoat sohasida milliy bren egalari hamda nufuzli xalqaro brendlar hamkorlarini Savdoga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 748-son qarori

2-jadval. Milliy brend ro'yxatiga kiritilgan sanoat tarmoqlariga jalb etiladigan xorijiy mutaxassisliklar ro'yxati<sup>29</sup>

T/r	Sanoat yo'nalishlari	Talab yuqori bo'lgan mutaxassislar
1	Avtomobil sanoati	Muhandis (texnolog), marketolog
2	Zargarlik sanoati	Modelyer-dizayner, muhandis (texnolog), marketolog
3	Ipakchilik sanoati	Pillachilik mutaxassisi, grenaj mutaxassisi, texnolog
4	Kimyo, parfyumeriya va kosmetika sanoati	Kimyo-texnolog, marketolog
5	Qurilish materiallari sanoati	Geodezist, texnolog
6	Mebelchilik sanoati	Modelyer-dizayner, muhandis (texnolog), marketolog
7	Metallurgiya sanoati	Muhandis (texnolog), marketolog
8	Oziq-ovqat sanoati	Muhandis (texnolog), marketolog
9	To'qimachilik sanoati	Modelyer-dizayner, muhandis (texnolog), marketolog
10	Farmatsevtika sanoati	Kimyo-texnolog, marketolog, biofarmakolog
11	Charm-poyabzal sanoati	Modelyer-dizayner, muhandis (texnolog), marketolog
12	Elektrotexnika sanoati	Modelyer-dizayner, muhandis (texnolog), marketolog

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, milliy brendlar ro'yxatiga kiritilgan jami 12 ta sanoat yo'nalishlarining 10 tasi bo'yicha yuqori kasbiy kompetentlik darajasidagi marketologlarga bo'lgan talabning yuqoriligi sababli, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqilgan. Mazkur holat nafaqat agrosanoat, balki, mahlliy sanoat tarmoqlarining aksariyat yo'nalishlarida marketing faoliyatini innovatsion rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan kadr darajasi ta'minotidagi uzilishlar muammosi mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birgalikda, mamlakatda agrosanoat tarmoqlari faoliyatida innovatsion marketing faoliyatini amalga oshirishning institutsional asoslari mazkur faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish, uni amalga oshirilishini nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash yo'nalishlaridagi davlat tashkilotlari va xususiy sektor vakillarining ishtirokida o'z ifodasini topadi. Jumladan, agrosanoat tarmoqlarida amalga oshiriladigan davlat siyosati, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarda ishtirok etuvchi davlatning vakolatli organlari qatoridan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi"<sup>30</sup>, "Iqtisodiyot va moliya vazirligi"<sup>31</sup>, "Qishloq xo'jaligi vazirligi"<sup>32</sup>, "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi"<sup>33</sup>, "Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi"<sup>34</sup>, "Savdo-sanoat palatasi"<sup>35</sup>, "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti ilmiy-ishlab chiqarish markazi, Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligi texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi, Urug'chilikni rivojlantirish markazi"<sup>36</sup>, "Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi"<sup>37</sup>, "O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi"<sup>38</sup> (reklama va targ'ibot ishlarini amalga oshirishda ishtirok etadi), "Innovatsion rivojlanish agentligi"<sup>39</sup>, jumladan, qishloq xo'jaligi, sohada yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy subyektlar, turli reklama agentliklari faoliyatini natijasida agrosanoat tarmoqlarida innovatsion marketing dasturlaridan foydalanishning institutsional asoslari o'z ifodasini topadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan holatlar bilan birgalikda, Agrosanoatni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish orqali mamlakat qishloq xo'jaligida iste'molga tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish asosida "qo'shilgan qiymat zanjirini joriy qilish, sohada mahsulotlar eksportini qo'llab-quvvatlash, xalqaro standartlar talab darajasidagi

29 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-286-son qaroriga 2-ilova, 07.08.2024-y.

30 O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi O'RB-982-son Konstitutsiyaviy Qonuni, 25.10.2024-y.

31 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi faoliyatini tashkil etish hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-28-son farmoni, 28.02.2023-y.

32 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 571-son qarori, 19.07.2019-y.

33 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 489-son qarori, 08.08.2024-y.

34 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son farmoni, 21.12.2022-y.

35 O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RB-483-son Qonuni, 09.07.2018-y.

36 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi FP-5708-son farmoni, 17.04.2019-y.


37 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi 533-son qarori, 12.07.2018-y.

38 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini tashkil etish bo'yicha tadbirlar haqida"gi PQ-245-son qarori, 27.12.2005-y.

39 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solishdagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 489-son qarori, 08.08.2024 y



mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish<sup>40</sup> kabi yo'nalishlarda agrosanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni samaradorligini taminlashga erishilib, sohada davlat boshqaruvining zamonaviy mexanizmini shakllantirish borasidagi islohotlarni amalga oshirish samaradorligi ta'minlandi, shuningdek, mahalliy agrosanoat tarmoqlari faoliyati samaradorligini davlat tomonidan nazorat qilish samaradorligini oshirish, jumladan, "qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari zaxiralarini shakllantirish bo'yicha talablar bajarilishi"<sup>41</sup> muntzam monitoring qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzurida tashkil etilgan agrosanoat ustidan nazorat qilish inspeksiyasi<sup>42</sup>ga birlashtirilgan hisoblanadi. Inspeksiya tarkibiy jihatdan hududiy boshqarmalar, tuman bo'limlari va Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazi<sup>43</sup> kabi tashkilotlardan tashkil topganligi bilan xarakterlanadi. Bunday markaz va agentliklar faoliyatini tashkil etilishi agrosanoat tarmoqlarining innovatsion faollik darajasini oshirib, marketing tadqiqotlari sohasida ham innovatsion texnologiyalardan foydalanish amaliyotini rag'batlantirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Agrosanoat tarmoqlari innovatsion marketing faoliyatini rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslarining ustuvor yo'nalishlari<sup>44</sup>

Demak, bugungi kunda mamlakatda agrosanoat tarmoqlarining innovatsion marketing faoliyatini rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslari quyidagi yo'nalishlarning o'zaro integratsiyalashuviga asoslanganligi aniqlandi:

birinchi yo'nalish agrosanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hisoblanib, bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan boshlab, to ularni sanoat tarmoqlarida qayta ishlash orqali iste'mochilar uchun agrosanoat mahsulotlarini iste'molga tayyor holatga keltirish va ularni sotish (ya'ni, iste'molchiga yetkazib berish) bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oluvchi huquqiy-institutsional asoslarda o'z ifodasini topadi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini texnik-texnologik jihatdan tartibga solish, ularni standartlashtirish bilan bog'liq bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ham nazarda tutiladi;

ikkinchi yo'nalish agrosanoat tarmoqlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish jarayonlari bo'lib, bunda nafaqat mahsulot ishlab chiqarish zanjirining turli bosqichlari, uning texnik-texnologik ta'minoti, balki marketing faoliyati bilan bog'liq bo'lgan innovatsiyalarda amaliyotda foydalanish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar e'tiborga olinadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, innovatsion rivojlanish amaliyotida ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro integratsion munosabatlarni rivojlantirish, xususan, oliy ta'lim muassasalari, turli ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy-amaliy va ilmiy-fundamental tadqiqotlar asosida olingan natijalarni tijoratlashtirish amaliyoti muhim ahamiyat kasb etadi;

uchinchi yo'nalish agrosanoat tarmoqlarida marketing faoliyatini amalga oshirish jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, bunda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan marketing faoliyatini yo'lga qo'yish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ularning tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etilishi nazarda tutiladi. Har bir tarmoq ishlab chiqarilayotgan mahsulotning turi, uning iste'mol xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, marketing dasturlarini tuzishda o'ziga xos yondashuvdan foydalanishi kerak bo'ladi.

Shu bilan birgalikda, o'tkazilgan tadqiqotlar mamlakatda agrosanoat tarmoqlarida innovatsion marketing faoliyatini rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslari ularning ahamiyatidan kelib chiqqan holda, milliy iqtisodiyot darjasidagi qonunlar, tarmoq xususiyatlarini o'zida aks ettirgan strategik rivojlanish dasturlari va konsepsiyalar, shuningdek, tegishli yo'nalishlardagi davlat islohotlarini amalga oshirish mexanizmlari bilan

40 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog' v tokzorlarni barpo qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-151-son farmoni, 30.09.2024-y.

41 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Agrosanoat majmuida davlat nazorati tizimini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-164-son farmoni, 22.10.2024-y.

42 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 575-son qarori, 12.07.2019-y.


43 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Agrosanoat majmuida davlat nazorati tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 197-son qarori, 01.04.2025-y.

44 Muallif tomonidan tuzilgan

bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, tegishli mutasaddi davlat organlari, jumladan, vazirliklar, idoralar, qo'mita, agentlik kabi tashkilotlarning yakka yoki qo'shma tartibda qabul qilgan qarorlari, farmoyish va buyruqlarida o'zi ifodasini topadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakat agrosanoat tarmoqlarida innovatsion marketing faoliyatini amalga oshirishning huquqiy-institutsional asoslarini tahlil qilish asosida uning amal qilish mexanizmi 2-rasmda keltirilgan tartibda bo'lishi aniqlandi. Shu bilan birgalikda, agrosanoat tarmoqlarining innovatsion marketing faoliyati ko'p tarmoqli xususiyatga ega bo'lib, uning huquqiy-institutsional asoslari amal qilish mexanizmi tegishli davlat organlari, tashkilotlari va ushbu sohada faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillari o'rtasida o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy integratsion munosabatlarni bozor elementlari bilan to'yintirilgan tartibda amal qilishiga asoslanganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu holat davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar, strategik rivojlanish dasturlari, shuningdek, tarmoq bo'yicha islohotlarni amalga oshirish ustuvorliklariga tegishli bo'lgan qaror va farmonlarni bajarilishida davlat va xususiy sektor vakillari o'rtasidagi funksional vazifalar taqsimoti quyidagi tartibda bo'lishidan dalolat beradi (2-rasm):



2-rasm. Agrosanoat tarmoqlarida innovatsion marketing faoliyatini amalga oshirishning huquqiy-institutsional asoslari amal qilish mexanizmi<sup>45</sup>

davlatning mutasaddi tashkilotlari va boshqaruv organlari tarmoqning real vaqtdagi rivojlanish holatini baholaydi, uni yanada rivojlantirish bo'yicha tegishli davlat dasturlari, jumladan, strategiyalar, konsepsiyalarni ishlab chiqib, sohaning samarali amal qilishi uchun tegishli infratuzilmani tashkil etib, uni rivojlantirish bo'yicha islohotlarda faol ishtirok etadi;

xususiy sektor vakillari agrosanoat tarmoqlarida innovatsion marketing faoliyatini rivojlantirish borasidagi mavjud imkoniyatlardan yaratilgan shart-sharoitlarga mos holda foydalanib, belgilangan strategik rivojlanish indikatorlariga erishilishini ta'minlashda faol ishtirok etadilar;

Umuman olganda, bugungi kunda mamlakatda agrosanoat tarmoqlarining innovatsion marketing faoliyatini amalga oshirish bo'yicha shakllangan huquqiy-institutsional asoslari xususiy sektorni rag'batlantirishga, shuningdek, ushbu sohada davlat ishtirokini kamaytirish orqali tizimni bozor elementlari bilan to'yintirishga ustuvorlik qaratilayotganligini ko'rsatdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдиев А. Агросаноат мажмуаси иқтисодиёти: Ўқув кўлланма. Қарши – 2007. – 270 бет
2. Мадалиев А.А. Агросаноат секторида илмий-техник тараққиёт ва инновацион ривожланиш концепцияси (Монография). "Наврўз" нашриёти, 2020. – 260 бет
3. Асатуллаев Х.С., Аллабергаанов З.Г. Ўзбекистон Республикасида кластерли тизим орқали аагросаноат самарадорлигини ошириш йўллари (Монография). "Fan va texnologiyalar nashriyot-matba uyi", 2020. – 190 бет

45 Muallif tomonidan tuzilgan



4. Abdulloev A.J. Agroklasterlar faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) diss. avtoref. Buxoro, 2024. – 34 bet.
5. Asqarov N.N. Qishloq xo'jaligida ko'p tarmoqli tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari. I.f.d. (DSc) diss. avtoref. Buxoro, 2025. – 30 bet.
6. Elov D.A. Mintaqalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) diss. Avtoref. Toshkent, 2024. – 30 bet
7. Ўзбекистон Республикасининг ““Фермер хўжаликлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонунига ўзгаартиришлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида”ги 662-II-сон Қонуни, 26.08.2004 й.
8. Ўзбекистон Республикасининг “Деҳқон хўжалиги тўғрисида”ги ЎРҚ-680-сон Қонуни, 01.04.2021 й.
9. Ўзбекистон Республикасининг “Қишлоқ хўжалиги кооперативлари тўғрисида”ги ЎРҚ-995-сон Қонуни, 08.11.2024 й.
10. Ўзбекистон Республикасининг “Қишлоқ хўжалиги таваккалчиликларини суғурта қилиш тўғрисида”ги ЎРҚ-1056-сон Қонуни, 14.04.2025 й
11. Ўзбекистон Республикасининг “Озиқ-овқат хавфсизлиги тўғрисида”ги ЎРҚ-1023-сон Қонуни, 03.02.2025 й.
12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси аагросаноат мажмуи ва қишлоқ хўжалигида рақамлаштириш тизимини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 794-сон қарори, 17.12.2020 й.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ““Рақамли Ўзбекистон – 2030” сратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6079-сон фармони, 05.10.2020 й.
14. Ўзбекистон Республикасининг “Инновацион фаолият тўғрисида”ги ЎРҚ-630-сон Қонуни, 24.07.2020 й.
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг Инновацион ривожланиш сратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-165-сон фармони, 06.07.2022 й.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>